



Paradigmatic relations of the semantics of verbs of mental activity in the Uzbek and Russian languages

Erkin MUSAEV¹

Navoi State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 June 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

15 July 2024

Keywords:

etymological sources,
linguoculturology,
verbs of desire,
verbs of perception,
impersonal constructions.

ABSTRACT

When determining a lexical semantic group in a work, words in any language are based on the rules accepted in lexicology for constructing an integral system with lexical semantic relationships. In this regard, it was explained that when combining words into a particular group, it is necessary to take into account their lexical meaning, conceptual precedent relations, grammatical meaning of connecting links, in particular, belonging to a particular group of words, semantic and stylistic relations with other words.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp224-229>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek va rus tillarida aqliy faoliyat fe'llari semantikasining paradigmatic munosabatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

etimologik manbalar,
lingvokulturologiya, istak,
hohish fe'llari,
idrok fe'llari,
shaxssiz konstruksiyalar.

Maqolada leksik semantik guruhni aniqlashda har qanday tildagi so'zlar leksik semantik munosabatlarda bo'lgan holda yaxlit sistemani tashkil qilish xususidagi sistem leksikologiyada qabul qilingan qoidalarga suyanib ish ko'riladi. Shunga ko'ra so'zlarni u yoki bu guruhga birlashtirishda uning leksik ma'nosi tushuncha – predmetlik munosabati, birikuvchanlik aloqalari grammatik ma'nosi, xususan, biron so'z turkumining u yoki bu to'dasiga tegishliligi, boshqa so'zlar bilan semantik, stilistik munosabatlari ham hisobga olinishi zarurligi izohlandi.

¹ Senior Lecturer, Navoi State Pedagogical Institute.

Парадигматические отношения семантики глаголов умственной деятельности в узбекском и русском языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

этимологические
источники,
лингвокультурология,
глаголы желания,
глаголы восприятия,
безличные конструкции.

При определении лексической семантической группы в работе слова на любом языке основываются на принятых в лексикологии правилах построения целостной системы с лексическими семантическими отношениями. В связи с этим было разъяснено, что при объединении слов в ту или иную группу необходимо учитывать их лексическое значение, понятийно-прецедентные отношения, грамматическое значение соединительных связей, в частности принадлежность к той или иной группе слов, семантические и стилистические отношения с другими словами.

Jahon lingvistikasi taraqqiyotida fe'l leksemalari semantikasining o'ziga xos milliy til va nutq xususiyatlarining namoyon etilishi jihatidan, doimo tilshunoslarni diqqatini o'ziga qaratib keldi. Fe'l leksemalari semantikasi tadqiqida sistem-struktur, semantik-kognitiv, stilistik-funksional, mantiqiy-pragmatik, ijtimoiy-ma'naviy, milliy-madaniy xususiyatlarini o'zbek va rus tillari misolida qiyosiy-tipologik aspektda tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning etimologik manbalarini aniqlash va ularning ekvivalentligi hamda o'ziga xos xususiyatlarini asoslash lingvokulturologiya, kognitiv-lisoniy (lingvistik) yo'nalishlarini antropotsentrizm nazariyalari bilan boyitish imkonini beradi.

Dunyo lingvistikasida fellarning lingvistik xususiyatlarini hamda shakllanish omillarini lingvomadaniy va qiyosiy-tipologik aspektda o'rganish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbek tilshunosligida fe'l kategoriyasi dastlab A. G'ulomov, A. Hojiyev, Sh. Shukurov kabi atoqli olimlar tomonidan chuqur tahlil etilgan. O'zbek tili leksik birliklarining semantik makro va mikromaydonlarini o'rganishda, shuningdek, leksikografik tavsifida ideografik yondashuv I. Qo'chqortoyev, R. Rasulov, H. Ne'matov, S. Muxammedova, M. Narziyeva, J. Bo'ronov, Sh. Iskandarova, R. Safarova, O'. Sharipova, N. Nishonova kabi olimlarning fe'l semantikasining ideografik tavsifida leksikografiyaga aloqadorligini tadqiq etishda xizmatlari katta.

Aqliy faoliyat fe'llari umumiy ma'noda quyidagi sinflarga bo'linadi: 1) *istak, hohish* fe'llari; 2) *idrok* fe'llari; 3) *diqqat* fe'llari; 4) *aqliy(hissiy) holat* fe'llari; 5) Сезги феъллари *Hissiy (emotsional) kechinma* fe'llari; 6) *hissiy (emotsional) munosabat* fe'llari; 7) *fikrlash* fe'llari; 8) *bilish* fe'llari; 9) *xotira* fe'llari. Birinchi oltita sinf keng ma'noda his-tuyg'ular sohasi bilan, oxirgi uchta esa, fikrlash sohasi bilan bog'liq. Maqolamizda aqliy faoliyat fe'llarining bir nechta sinflariga to'xtalib o'tmoqchimiz

ISTAK, HOHISH FE'LLARI (ГЛАГОЛЫ ЖЕЛАНИЯ).

O'zbek va rus tilida hohish, istak fe'llari, bir tomondan, sezish fe'llariga, ikkinchi tomondan, ixtiyoriy faoliyat fe'llariga yaqin. Istak-bu tananing ba'zi ichki ehtiyojlarini ongli ravishda his qilish (gohida unchalik aniq bo'lmagan- смутное желание) ularni qondirish istagi bilan bog'liq jarayon, intilish esa iroda xarakati. Istak fe'llari tuyg'u fe'llariga yaqin bo'lib insonning moyilliklari va har xil bog'liqlikni bildiradi. (*увлекаться, любить* – *mashg'ul bo'lmoq, sevmoq* va boshqa.) Asosiy ma'nosi "biron narsaga ehtiyoj

sezish”ni anglatuvchi *хотеть-hohlamoq, желать-istamoq* va ularning sinonimlari *жаждать, гореть желанием-istagida yonmoq, (нетерпением-chidamsizlik bilan)-*”kuchli hohishni anglatga”, *стремиться-intilmoq, испытывать стремление-intilishni sinash* -biror maqsadga erishishni bildiradi, *тянуться к кому-, чему-л.* unga nima yoqsa, nimadir qiziqtirsa o’shanga intilish holatini anglatadi. *Испытывать (чувствовать, ощущать) жажду* juda kuchli hissiyotni anglatadi. *Действительно, зимой Левицкий был скрытно влюблён в Дарию Тадиевну, а до неё испытывал некоторые чувства и к Зойке. Наqiqatdan ham qishda Левицкий яширинча Дария Тадиевнага ko’ngil qo’ugan edi, ungacha Зойкага nisbatan ayrim hislarni ko’ngildan o’tkazgandi* (И. Бунин. Тёмные аллеи.стр3)

Ко’pchilik hollarda shaxssiz konstruksiyalarda frazeologizmlar qo’llaniladi: Руки (ноги) горят – oyoq qo’li yonayapti; Слюнки текут-sulagi oqdi (masalan: У людей **руки чешутся**, а работы нет)-Odamlarning **qo’li qichiydi**, lekin ish yo’q kabi

Birorta kimsani yoki biron narsani umuman ko’rish istagi yo’qligi ikkala tilda ham ushbu frazeologizmlar orqali ifodalanadi. Глаза бы (моу) не видели – Ko’zlarim ko’rmasa edi; Глаза бы (моу) не глядели (не смотрели) – Ko’zlarim shunga tushmasa edi kabi .

Душа не принимает-hech yuragim betlamayapti; не лезет в горло(глотку, рот)- Ничего в горло не идет- tomog’imdan hech narsa o’tmaydi. Masalan, Ахаджан-ака сняли с работы и исключили из партии. **Hech narsa tomog’imdan o’tmaydi.** Ахаджон akani ishdan ham olishdi partiyadan ham o’chirishdi. (Избран.произ А.Каххар.стр. 392) kabi ifodalar yeyish, ichish istagi yo’qligini ko’rsatadi.

Rus tilida istak ma’nosidagi ushbu **kauzativ** guruhlar: *вызывать, (возбуждать) охоту (желание)-istakni uyg’otish*, fe’llari kandaydir istakni o’yg’otib, doimiy stimullarini sekinlik bilan kuchaytiradi. Манить – aldov; заманивать – qiziqtirib o’ziga tortmoq; притягивать – o’ziga rom qilmoq; увлекать – qiziqtirish; привлекать – o’ziga qaratmoq; kimningdir orqasidan ergashish, qayergadir borish, biror chora ko’rish istagini bildiradi.

Shunday qilib istak fe’llari sinfi yadroviiy ma’no kasb etgan “испытывать желание – hohishni his qilish” fe’llari bilan identifikatsiyalashadi va o’zida subyekli va obyektli sintagmatik semalarni o’z ichiga oladi.

Istak fe’llarining asosiy tipik belgilaridan biri uning infinitiv bilan bir

ikishi hisoblanadi. **Выпить хочу.** Не я хочу, болезнь моя хочет! Пойми! **Ichkim kelayapti.** O’zim hohlamayman, mening kasalim hohlaydi! Tushun! (Антон Чехов «Рассказы. Юморески. 1883–1884» стр 105.) Он хочет читать – и o’qishni hohlaydi – Он имеет желание читать – и o’qish istagida kabi.

Rus tilida *istak* fe’llarining ko’plab boshqa semantik sinflardan farqi ular boshlang’ich va chegaralovchi aspektual semalarni ifodalovchi pristavkalar (old qo’shimchalar) bilan birikmaydi. Ularga faqatgina kuchaytiruvchi prefiks – *раз(рас) разохотиться; разохотить* – *huzur qilib ov qilish*)larni qo’shilishi mumkinligi ko’rsatib o’tilgan.

IDROK FE’LLARI. (ГЛАГОЛЫ ВОСПРИЯТИЯ)

Rus tilida idrok fe’llari sezish va istak fe’llaridan farqli o’laroq, inson ongi bilan tashqi muhit, tashqi olamning predmetlari va xususiyatlarini aks ettirishini anglatadi. Ulardan ba’zilari umumiy idrokka ishora qiladi, boshqalari faqatgina ma’lum sezgi a’zolari yordamida amalga oshiriladigan idrokka qaratiladi.

Umumiy ma'noli idrok fe'llari kimnidir nimanidir u yoki bu usulda idrok qilishning umumiy perseptiv ma'nosi *воспринимать* – *idrok qilmoq*; *принимат* – *qabul qilmoq*; *улавливат* – *ilib olish kabi sezgi a'zolari, fikr va intuitsiya orqali his qilishni anglatadi*. Bu fe'llar ikkilama boshqaruvga xos (kimnidir, nimanidir, nima bilandir idrok va transformatsiya qilish *Своим слухом он улавливает малейший шорох*; – *o'zining eshitishi bilan u hamma narsani ilib oladi*. Misol, *Он наблюдает, изучает, улавливает эту эксцентрическую, загадочную натуру, понимает ее, постигает... Душа ее, вся ее психология у него как на ладони*. – *U o'sha eksentrik sirli naturani kuzatadi, o'rganadi va payqaydi, uni tushunadi va unga yetishadi. Uning qalbi, psixologiyasi xuddi kaftdagidek ayon edi*. (Anton Chehov «Рассказы. Юморески. 1883-1884» стр 38) ikkinchisi faqatgina vinitelnyy padej formasi bilan boshqaruv (чувствовать кого-his qilmoq kimni? nimani?) ya'ni, bu fe'llarning semantikasi idrok vositasi ekanligi ko'rsatilgan.

Ushbu ko'rib chiqilayotgan guruhga juda yaqin ma'nodagi natijaviy fe'llar *замечать (sezmoq)* va uning sinonimlari – aniq hissiy formada idrok qilishni anglatga, *усматривать* – *sinchiklab qaramoq uslejivatsya* – *kuzatib o'tirmoq* fe'llari kuzatuv natijasidagi sezilganligi, idrok qilinganligi aytib o'tiladi. Masalan: *Вот уже несколько месяцев Гульсумбиби замечает, что дочь ее часто грустит, ищет уединения*. – *Mana bir necha oydirki Gulsumbibi sezib yuribdi, uning qizi tez-tez g'amga botadigan bo'lib qoldi, tanholikda bo'lishni hohlaydi*. (Айбек.Священная кровь.стр 80)

Подмечать – *belgilab qo'ymoq*; *подсматривать* – *yashirincha qaramoq*; *подглядывать* – *qarab-qarab qo'ymoq* fe'llarida kutilmagan hollarda va ko'pincha kuzatish obyekti uchun sezdirmasdan amalga oshirilgan holat nazarda tutiladi.

Почувствовать, почуять(sezmoq), учуять, увидеть-ko'rib qolmoq fe'llarida intuitsiya orqali idrok qilish nazarda tutiladi.

Masalan: *Тряся головой на тоненькой шее, старушка трепыхалась, словно птенец ласточки, почувявший приближение матери, и тревожно оглядывала людей, стараясь уловить в их разговорах что-нибудь для себя*. – *Kampir ingichka bo'yinchasidagi boshini qimirlatib, xuddi onasini yaqinlashganini sezgan qaldirg'och poloponlaridek tipirchilar, odamlarga besaranjom bo'lib qarar va ularni gaplaridan o'zi uchun nimanidir payqab olishga harakat qilardi*. (Изб. произ. А.Каххар стр.259) *Находить* – *topmoq*; *обнаруживать* – *topib olmoq*; *открывать* – *ochmoq* fe'l ma'nolarida oldin yashiringan, sezilmaydigan nimanidir idrok qilish, sezish tushuniladi.

Bu kabi guruh fe'llar majhul va nisbiy nisbatlarda ishlatilish mumkin. Он замечает всё – u hamma narsani sezadi; Им всё замечается – ular hamma narsani seza oladi kabi.

Rus tilida esa hamma narsani seza olish, quyidagi frazeologizmlar bilan ifodalanadi. *Видет на три аршина под землёй* – *Erning tagida ilon qimirlasa biladi*; *Не дальше своего носа не видит* – *Burnining tagidagi narsani ko'rmaydi* frazeologizmi bilan o'lchanadi.

КО'РИШ ORQALI IDROK ETISH FE'LLARI.

Rus tilida ko'rish orqali idrok etish *видеть* fe'li bilan ifodalanadi. *Я хочу видеть-Men ko'rmoqchiman*; *Она пренкрасно видит-U juda yaxshi ko'radi*. Ushbu fe'l konstruksiyalari bilan har xil modal va boshqa transformatsiyalar oson ishlatiladi: *Он видит-u ko'radi*; *Он зрячий uning ko'zlari o'tkir*; *У него есть зрение* – *Uning ko'rish qobiliyati yaxshi*; *Он (уже) видит* – *u ko'ra boshladi*; *Он(уже)способен видеть* – *Uning ko'rish qobiliyati yaxshi*); *Он может(уже) видеть* – *U ko'ra oladi. va h.k*

Ko'rish qobiliyatini yo'qligi (ko'rlik) rus tilida ot va sifat konstruksiyalarida ifodalanadi: *Он слеп (слепой) – Uning ko'zi ko'rmaydi; У него слепота – U ko'r. Biroq ko'rlikni paydo bo'lishi sifat bilan birgalikda слепнуть – ko'r bo'lmoq (ослепнуть)* феъли билан ҳам ишлатилади. *Он слепнет – Он становится слепым – Он теряет зрение – Он лишается зрения.* Formal ega pozitsiyasida shaxs nomi o'rniga *глаза, очи* otlari ishlatilishi mumkin: *Глаза его слепнут-uning ko'zlari ko'r bo'ladi..Слепнуть, ослеплять* va ularga sinonim so'z birikmalari *лишать(лишить) зрения-ko'rish qobiliyatidan ajralgan degan* kauzativ ma'noga mos keladi va bu fe'llar “мешать смотреть” “qarashga xalaqit qiladi” ma'nosida ham kela oladi: *Солнце слепило его-Uni quyosh qamashtirdi yoki quyosh uning ko'zlarini qamashtirdi. Солнце слепило ему глаза (Солнце мешало ему смотреть – Quyosh uning qarashiga xalaqit qildi kabi).*

Boshqa ko'rish orqali idrok etish fe'llari bir qancha guruh va gruppachalarga quyidagi **semalar** bo'yicha bo'linadi: maqsadga *yo'naltirilganlik/yo'naltirilmaganlik, samaradorlik/samaradorsizlik, faollik/nofaollik, kauzativlik /nokauzativlik* va boshqalar.

Birinchi kichik guruhga *смотреть, глядеть* va sinonimlari *созерцать, любоваться*, ya'ni *huzur qilib, zavqlanib qarash*

Узбек-айм крепко прижимала её к груди, чмокала то в одну, то в другую щёку, любовалась ею и почему то плакала. O'zbekoyim uni qattiq bag'riga bosib, goh u betidan, goh bu betidan cho'lpillatib o'pdi, uni erkaladi, lekin nimagadir yig'lab yubordi. (А.Кадири. Минувшие дни.стр 259), не сводить (не спускать)глаз – ko'zdan qochirmaslik; смотреть(глядеть) во все глаза- hech narsaga chalg'imasdan qarab turish; пожирать глазами (взглядом) ko'zlari bilan yemoq; смотреть(глядеть) в рот-og'ziga qaramoq, juda diqqat bo'lib, tikilib, ko'z uzmasdan qarash; *Юлчи не сводил с девушки глаз. Гульнар похудела. Пережитое наложило свой отпечаток на весь ее облик. Yulchi qizdan ko'zini uzmasdi. Gulnor ozib qolgandi. O'tmish uning bor ko'rinishiga o'zining rasmini solgandi.* (Айбек. Священная кровь.стр.125) смотреть большими глазами, разг. таращиться, прост.

Пучиться, пялиться, пучить, пялить, лупить- ko'zlarni katta ochib, tik qarash (ko'pincha qo'rquv yoki hayron qolish holatida)

Глазеть простор – maqsadsiz shunchaki qiziqishdan qarash; шнырять глазами – bir predmetdan boshqasiga tez nazarini o'tkazmoq, ko'zini o'ynatmoq; сверкать глазами-qandaydir kuchli hissiyot bilan tez qarash; метать искры-jahl bilan qarash, глотать слюни – (sulagi oqmoq) nimagadir, kimgadir erish istagida hasad bilan juda kuchli qarash nazarda tutiladi.

Ikkinchi guruhga quyidagi fe'llar va ot-fe'l so'z birikmalari: Взглядывать qarab – qarab quyaverish, вонзать глаза – nigohini qadamoq; обмерывать глазами – kuzi bilan chamalamoq kabi fe'llar kiradi. Masalan: ***Потом она стала иногда взглядывать на него, как бы несмело спрашивать взглядом: правда?- Keyin u gohida ko'z ostidan unga qarab quyar, qarashlari bilan unchalik botina olmaygina – to'g'rimi demoqchi bo'lardi.*** (И Бунин. Тёмные аллеи.стр 39)

“Ko'rishdan to'xtash” ma'nosida терять (потерять) из виду frazeologizmi qo'llaniladi. Ko'rish orqali idrok etish maydoniga qator semantik guruhlar kiradi. Bu yaderniy ma'noli fe'llar “Ko'rinarli bo'lmoq”, “ko'rinadigan bo'lmoq” “ko'rinadigan qilmoq” bo'lishlilik va kauzativlik semalari bo'yicha bir-biriga qiyoslanadi. ***Он послал вам письмо, но вы так долго не приезжали, что он потерял всякое терпение и побежал к зубному врачу. – U sizga xat yozdi, biroq siz uzoq vaqt kelavermadingiz va uning sabri tugab tish duxtiriga ketib qoldi.*** (А. Чехов. Рассказы. Юморески стр 148).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “ko‘rinarli bo‘lmoq”, “ko‘rinadigan bo‘lmoq” “ko‘rinadigan yoki ko‘rinmaydigan qilmoq” fe‘llari idrok fe‘llariga ma‘nosi jihatdan juda uxshash, ko‘rish orqali idrok etish fe‘llari esa rangni bildiruvchi semantik maydonlar bilan chambarchas bog‘lanib ketadi.

Demak, o‘zbek tilida fe‘llarning nisbat ortishi bilan ular semantikasida ma‘no taraqqiyoti mavjud bo‘ladi. Bu masala olib borayotgan tadqiqotimiz asosidagi ideografik lug‘atning semantik maydon nazariyasi mukammalliligiga erishuviga asos bo‘ladi. Keltirgan misollarimizning aksariyatida bu holat kuzatiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, *хотеть-hohlamoq*, *желать-istamoq* *чувствовать воспринимать, замечать* yoki *ощущать(sezmoq)* kabi tayanch so‘zi bilan kelgan fe‘llar guruhi yuqorida ko‘rib chiqilgan semantik sinflarning yadrosi hisoblanadi va qolgan guruhlar esa turdosh sezgilarini (sovuq, og‘riq hislarini) bildiruvchi fe‘llar unga privativ oppozitsiyada bo‘ladi. Ya‘ni ular bir biri bilan obe‘kt semalari bo‘yicha ekvipolentli oppozitsiyasi bilan bog‘lanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘ulomov A. Fe‘l. T.: 1956.
2. Xojiyev A. Fe‘l. T. Fan. 1973.
3. Hojiyev A. Fe‘l. // O‘zbek tili grammatikasi. T. Fan. 1975.
4. Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T. O‘qituvchi, 1965 yil.
5. Abdurahmonov G‘, Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T. O‘qituvchi, 1973. yil.
6. Kuchkartayev I.K. Valentniy analiz glagolov rechi v uzbekskom yazike. -T. Fan, 1977. yil
7. Rasulov R. Glagoli sostoyaniya v uzbekskom yazike i ix valentnost: avtoref. diss. .dokt. filol. nauk. – T. 1989. – 34 s.
8. Rasulov R. O‘zbek tilidagi holat fe‘llari va ularning obligator valentliklari. – T. Fan, 1989.-yil.
9. А.Чехов. Рассказы. Юморески стр. 148
10. И Бунин. Тёмные аллеи.стр. 39.
11. Айбек. Священная кровь.стр.125.
12. А.Кадири. Минувшие дни.стр. 259.